

SEREBRAL FALAJLANGAN BOLALARINI YAKKA O'QITISH DASTURINI LOYIHALASHTIRISHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Special pedagogy fakulteti talabasi
Sodiqova Muslima Tolibjon qizi
Sadikovamuslima1215@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Serebral falajlangan bolalarni xususiyatlari,ular bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlar,yakka o'quv dasturlarini loyihalashtirish,bolalar bilan zamonaviy yondashuvlar,serebral falajlangan bolalarda zamonaviy yondashuvdagi tamoyillar to'g'risidagi fikrlar boradi.

Kalit so'zlar: Bolalar serebral falajligi, tamoyillari, korreksion mashg'ulotlar, tashxislash, defektolog.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности детей с ДЦП, коррекционное обучение с ними, составление индивидуальных образовательных программ, современные подходы к работе с детьми, а также принципы современных подходов к детям с ДЦП.

Ключевые слова: Детский церебральный паралич, принципы, коррекционные упражнения, диагностика, дефектолог.

Annotation: This article discusses the characteristics of children with cerebral palsy, corrective exercises carried out with them, designing individual educational programs, modern approaches with children, and the principles of modern approaches to children with cerebral palsy.

Key words: Children's cerebral palsy, principles, corrective exercises, diagnosis, defectologist.

Bolalar serebral falaji (BSF) butun dunyoda har 1000 nafar boladan 1,7 dan 7 tasida uchraydi. Chala tug'ilgan bolalarda bu ko'rsatkich 10 barobar yuqori bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha BSF bilan yashayotgan 17 million nafar bemor ro'yxatga olingan.

O'zbekistonda BSF bo'yicha aniq statistik ma'lumotlar mavjud emas. Biroq, umumiylahon statistikasi va mintaqaviy tendensiyalarga asoslanib, mamlakatda ham BSF bilan kasallangan bolalar soni sezilarli bo'lishi mumkin.

BSF rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida homiladorlik davridagi infeksiyalar, tug'ruq paytidagi asfiksiya va chala tug'ilish kabi holatlar mavjud.

BSFnii erta aniqlash va davolash bolalarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, agar bolaning rivojlanishida kechikishlar yoki harakatlanishida muammolar sezilsa, mutaxassisiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Jahon amaliyotida BSF uchtrash chastotasi bir yoshgacha bo‘lgan 1000 ta bolaga 1,7 dan 7 tagacha holatni tashkil qiladi.

Rossiyada bu ko‘rsatkich har 1000 bolaga 2,5 dan 6 holatgacha o‘zgarib turadi. BSF bilan kasallangan bolalarning taxminan 50% muddatidan oldin tug‘ilgan bolalar hisoblanadi.

Miya falajiga chalingan bolalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular alohida e’tibor talab qiladilar va muloqotga kirishishda katta qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ular ko‘pincha o‘z fikrlari, his-tuyg’ulari, istaklari va ehtiyojlarini ifoda eta olmaydilar shuning uchun har bir bola bilan shug’illanishda bolaning kognativ fikirlashlari uning qobiliyatlarini hisobga olib bola bilan korreksion mashg’ulot tashkil etiladi.

Individual korreksion- rivojlantiruvchi dastur har bir bola uchun individual ravishda ishlab chiqilgan, uning muayyan faoliyat turini amalga oshirish qobiliyatini tiklash yoki qoplashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

Har bir individual dastur quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- I. Dasturning umumiy tavsifi, dolzarbligi;
- II. Metodologik va nazariy asoslari;
- III. Maqsad va va vazifalar, kutilayotgan natijalar;
- IV. Mashg’ulotlar rejasi va mazmuni;
- V. Ishni tashkil etish usul va shakllari;
- VI. Ishning asosiy bosqichlari;
- VII. Dastur samaradorligini baxolash.

Dasturda 3 yo‘nalishdagi vazifalar belgilanadi:

Korreksion vazifalar - rivojlanish nuqson va buzilishlarini tuzatish, rivojlanish qiyinchiliklarini hal qilish.

Profilaktik vazifalar - rivojlanishdagi og‘ish va qiyinchiliklarni oldini olish Rivojlantiruvchi vazifalar - rivojlanish mazmunini optimallashtirish, rag‘batlantirish va boyitishdir.

Dasturlar standartlashgan va erkin bo‘lishi mumkin.

Standartlashtirilgan dasturda tuzatish bosqichlari, zarur materiallar, ushbu dastur ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar aniq belgilangan bo‘ladi.

Erkin dasturlarda tuzatish bosqichlarining maqsad va vazifalari, mashg’ulot shakllari, tartibi, ishni tashkil etish bosqichlari mutaxassis tomonidan mustaqil belgilanadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan amalga oshiriladigan tuzatish dasturining turidan qat‘i nazar, u bir vaqtning o‘zida bir nechta yo‘nalishlarda kompleks faoliyatni nazarda tutadi. Ularning barchasi bir- biri bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, dasturning asosiy mazmunini aks ettiradi:

Tashxis erta bosqichlarda rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va bolani to'liq tekshirishni o'z ichiga oladi, uning asosida o'quv tashkiloti doirasida har tomonlama yordam ko'rsatish uchun individual dastur ishlab chiqiladi. Tuzatish va rivojlantirish faoliyati o'quv dasturini o'rganishda dolzarb tor yo'naltirilgan yordam ko'rsatishga va maktab sharoitida bolalarning jismoniy yoki ruhiy salomatligi imkoniyatlarining cheklanishini kamaytirishga, shuningdek aqliy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan. Maslahat ishlari nogiron bolalar va ularning oilalarini individual o'quv dasturini shakllantirish, tuzatish texnikasi, ta'lim va ijtimoiy moslashuv masalalarida doimiy ravishda nazorat qilish imkonini beradi. Axborot-ma'rifiy tadbirlar jarayonning barcha ishtirokchilari uchun rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirishga qaratilgan. Bularga o'quvchilar, ota-onalar yoki bolalarning qonuniy vakillari, shuningdek o'qituvchilar Individual dasturlarni loyihalashtirish tamoyillari

Vazifalarni belgilashga kompleks yondashuv tamoyili Korreksion dastur doirasida bolani har tomonlama rivojlantirish maqsadida uch turdag'i vazifalar belgilanishining muhimligini ta'kidlaydi, ya'ni, tuzatish, profilaktika va rivojlanish. Faoliyatli yondashuv tamoyili

Ushbu tamoyil - faoliyatning bolaning aqliy rivojlanishidagi rolining muhimligini ta'kidlaydi. Faoliyatli yondashuv prinsipi tuzatish ishlarining taktikasini, maqsadlarni amalga oshirish usullari va yo'nalishlarini belgilaydi. Bolaning yosh-psixologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish tamoyili. Bu tamoyil, bir tomongan, bolaning aqliy va shaxsiy rivojlanishining me'yoriy rivojlanishiga muvofiqligi talablarini, ikkinchi tomongan, shaxsning individual rivojlanish xususiyatlarini muvofiqlashtiradi. Korreksiya jarayonida individual yondashuv optimal tuzatish dasturini yaratishga imkon beradi. Tuzatish dasturini amalga oshirishda bolaning eng yaqin doirasining ishtiroki tamoyili. Ushbu tamoyil rivojlanishning ijtimoiy holatining ahamiyati bilan bog'liq. Bolaning yaqin kattalar bilan munosabatlari tizimi, ularning shaxslararo munosabatlari va muloqot xususiyatlari, birgalikdagi faoliyat shakllari, uni amalga oshirish usullari bola rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etadi, uning yaqin rivojlanish zonasini belgilaydi. Murakkablik tamoyili Vazifalarni shakllantirishda, bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda oddiydan murakkabga qadar bosqichma-bosqich olib borish kerak. Bolaning u uchun osonroq bo'lgan vazifalarning uddasidan chiqishi keyingi bosqichlar uchun rag'bat va motivatsiyani kuchaytiradi.

BSF bolalar muloqot qilishda qiynalishadi o'zlarini odamlardan olib qochishadi va bu bolalarda muloqotning shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillaryuzaga keladi. Omillar quyidagilardan iborat:

- Harakat buzilishlari;

- Nutqdagi jiddiy kamchiliklar;
- Emotsional buzilishlar;
- Jismoniy nuqson yuzasidan komplekslar (nuqsondan uyalish);

Uzoq muddatli davolash natijasida muloqot qilish imkonining cheklanganligi va h.k. BSF ga ega bolalarning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish va turli xil aloqa vositalarini o'rgatish tuzatish va o'quv ishlarining o'ziga xos va qiyin qismlaridan biridir. Bu toifa bolalar turli xil imkoniyatlarga ega, shuning uchun aloqa vositalarini tanlash bolaning jismoniy va intellektual imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Bolalar bilan logoped, defektolog, psixolog va boshqa mutaxassislar ishlaydilar. Barcha mashg'ulotlarda quyidagilar hisobga olinadi: aqliy zaiflikning mavjudligi, BSF shakli, motor buzilishlarning tuzilishi, aqliy faoliyat va bolaning holati. Miya falajiga chalingan bolalar bilan ishslashda elementar istaklar va ehtiyojlarni anglatuvchi aniq va tushunarli belgilarni tanlashga zarur. Ammo og'ir buzilishlarga ega bolalarda verbal aloqaga bo'lgan ehtiyojning pasayishi logoped tomonidan turli xil o'yin usullaridan foydalangan holda nutq faoliyati motivlarini yaratish zaruratin keltirib chiqaradi.

Xulosa: Hozirda yurtimizda inklyuziv ta'lim rivojlanib bormoqda bu alohida yordamga muhtoj bolalarni sog'lom bolalar bilan birligida o'qishiga imkon yaratadi. inklyuziv ta'limda xarakat-tayanch apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim buning uchun ularga maktabga kirshi uchun panduslar (90) sm, xonalarga kirshi uchun keng yo'laklar va maxsus liftlar qo'yilishi kerak. BSF bolalarga ta'lim berishda sinf rahbariga yordamchi sifatida resurs o'qituvchi tayyilanadi. Har bir bola bilan yakka shug'llanish kerak chunki har bir bolani o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi bolani birinchi o'rinda tashxisi, kognativ xususiyatlari va qobiliyatlarini o'rganib chiqiladi va shu xususiyatlarni hisobga olib individual shug'ullanish kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.В. Жигорева Дети с комплексными нарушениями в развитии: педагогическая помощь -Москва: Академия, 2006.(80-89 б).
2. L.R Mo'minova, Sh.M Amirsaidova. M.U Xamidova, Z. Djalolova, N.Abidova. Maxsus psixologiya. Darslik. «Fan va texnologiyalar markazi» Т.: 2013.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.03.2017 yildagi 140 -sonli qarori. "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017 yildagi 187 -sonli qarori. Davlat ta'lim standarti va ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal majburiy talablar. Slastenin V.I. Pedagogika. - M.: Akademiya, 2010. – 618 s.
5. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. - T.: «Fan va texnologiya», 2018. E
6. library.namdu.uz